Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlashda fiziologik rivojlanish va biologik atamalarning qo'llanilish xususiyatlari.....	656
<i>Ruziyeva Gulsara Temirqulovna</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar	662
<i>Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar orqali bolalarda mantiqiy va ijodiy rivojlanishni kengaytirish	665
<i>N. O. Saidova, Tojaliyeva Shahrizoda</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faoliyatini jismoniy vositalari orqali optimallashtirish masalalari	669
<i>Sarimsaqova Bashorat Muhammad qizi</i>	
Talabalarni axborot ta'lim muhitida kasbiy kompetentligini boshqarishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	673
<i>Shoimov Anvar Mamarizayevich, Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shodiyeva Guliston Temirovna</i>	

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	677
Suyarova Orzigul Sodiq qizi	
Ta'lim jarayonida talabalardagi stress holatlarini bartaraf etishning psixologik xususiyatlari.....	681
Toshpulatov Akmal A'zamjon o'g'li, Dumarov Mashhurbek	
Maktabgacha ta'lim faoliyat markazlarida ta'lim jarayonini davlat dasturi asosida modernizatsiya qilish ...	685
Ubaydullayeva Ra'no Furqat qizi	
The Role of STEAM Technologies in Teaching English.....	689
Umida Raimjanovna Irgasheva	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	693
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari o'rtasida metodik kollaboratsiyani boshqarish mexanizmini takomillashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar majmuasi va unda qo'llaniladigan metodlar	698
Xamrayeva Gulnoz Israilovna	
Migratsiya sharoitida yoshlar tarbiyasi: pedagogik risklar va ularning kelib chiqish sabablari	704
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich	
Отношение к телу и фитнес-практикам как фактор социально-психологического благополучия женщин	708
Дехконбоева Зулайхо Дилшод қизи	
Masofaviy o'qitish kompetensiyasi uchun shart-sharoitlarning samaradorligini tekshirish bo'yicha eksperimental ish.....	712
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Xalikov Abdulxaq Abdulxairovich	
Masofaviy ta'limning oxirgi besh yil davridagi rivojlanish bosqichlarining tahlili.....	719
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Ibragimova Ozoda Abdulxakovna	
Информированность педагогов ДОО о психофизиологических особенностях и здоровье детей в инклюзивном образовательной среде	723
Намазбаева Лола Закировна	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARI O'RTASIDA METODIK KOLLABORATSIYANI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR MAJMUASI VA UNDA A QO'LLANILADIGAN METODLAR

[Xamrayeva Gulnoz Israilovna](#)

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari o'rtasida metodik kollaboratsiyani boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan mashg'ulotlar majmuasi va unda qo'llaniladigan zamonaviy metodlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining metodik kollaboratsiyani boshqarish ko'nikmalarining yetarli darajada emasligini ko'rsatdi. Shu sababli direktorlar uchun maxsus seminar-treninglar, mahorat darslari va qo'shimcha mashg'ulotlar majmuasi ishlab chiqildi. Mashg'ulotlar majmuasi to'rt bosqichda amalga oshirildi: direktorlarning metodik kollaboratsiyani boshqarish ko'nikmalarining boshlang'ich darajasini aniqlash, ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha treninglar o'tkazish, pedagoglar va ota-onalar uchun ijodiy guruhlarda kollaboratsiyani loyihalashtirish hamda rivojlanganlik darajasini aniqlash bosqichlari. Mashg'ulotlarda "Oltita fikrlash shlyapasi", "Fikrlar mozaykasi", "Aqliy hujum", "BBB", "Keys-texnologiya", "Strategik stol", "Qarorlar shajarasi", "Maqsad piramidasi", "O'z kasbingni tasvirla" va "Sirli zanjir" kabi interaktiv texnologiyalar qo'llandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazilgan mashg'ulotlar direktorlarning kommunikativ ko'nikmalarini, nizoli vaziyatlarda o'zini tutish qobiliyatini hamda tashkiliy malakalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashg'ulotlar majmuasi pedagogik jamoada metodik kollaboratsiyani samarali tashkil etish va boshqarish mexanizmini takomillashtirish uchun amaliy vosita sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, metodik kollaboratsiya, boshqaruv mexanizmi, mashg'ulotlar majmuasi, interaktiv texnologiyalar, pedagogik jamoa, professional faoliyat, direktorlar, seminar-treninglar, kommunikativ ko'nikmalar, nizolarni hal qilish, tashkiliy malakalar, "Oltita fikrlash shlyapasi", "Aqliy hujum", "BBB metodi", "Keys-texnologiya", "Strategik stol", "Qarorlar shajarasi", "Maqsad piramidasi", hamkorlik faoliyati.



Abstract: The article analyzes the complex of trainings developed to improve the mechanism of methodological collaboration management among teachers of preschool educational organizations and the modern methods used in it. The results of the study showed that the skills of directors of preschool educational organizations in managing methodological collaboration are insufficient. Therefore, a complex of special seminars, master classes and additional trainings was developed for directors. The complex of trainings was carried out in four stages: determining the initial level of directors' skills in managing methodological collaboration, conducting trainings on developing skills, designing collaboration in creative groups for teachers and parents, and determining the level of development. The training sessions used interactive technologies such as "Six Thinking Hats", "Mosaic of Thoughts", "Brainstorming", "BBB", "Case Technology", "Strategic Table", "Decision Tree", "Goal Pyramid", "Describe Your Profession" and "Mysterious Chain". The results of the study showed that training sessions conducted using interactive educational technologies significantly improve the communication skills of principals, their ability to behave in conflict situations and their organizational skills. The training complex is recommended as a practical tool for improving the mechanism of effective organization and management of methodological collaboration in the pedagogical team.

Key words: preschool education organization, methodological collaboration, management mechanism, training complex, interactive technologies, pedagogical team, professional activity, directors, seminar-trainings, communication skills, conflict resolution, organizational skills, "Six thinking hats", "Brainstorming", "BBB method", "Case technology", "Strategic table", "Decision tree", "Goal pyramid", collaborative activities.

Аннотация: В статье анализируется комплекс тренингов, разработанных для совершенствования механизма управления методическим сотрудничеством между педагогами дошкольных образовательных организаций, и современные методы, используемые в нем. Результаты исследования показали, что навыки руководителей дошкольных образовательных организаций в управлении методическим сотрудничеством недостаточны. Поэтому для руководителей был разработан комплекс специальных семинаров, мастер-классов и дополнительных тренингов. Комплекс тренингов проводился в четыре этапа: определение исходного уровня навыков руководителей в управлении методическим сотрудничеством, проведение тренингов по развитию навыков, разработка методов сотрудничества в творческих группах для педагогов и родителей, а также определение уровня развития. В тренингах использовались интерактивные технологии, такие как "Шесть шляп мышления", "Мозаика мыслей", "Мозговой штурм", "BBB", "Технология кейсов", "Стратегическая таблица", "Дерево решений", "Целевая пирамида", "Опишите свою профессию" и "Загадочная цепочка". Результаты исследования показали, что тренинги, проводимые с использованием интерактивных образовательных технологий, значительно улучшают коммуникативные навыки руководителей, их способность вести себя в конфликтных ситуациях и их организаторские способности. Учебный комплекс рекомендуется в качестве практического инструмента для совершенствования механизма эффективной организации и управления методическим сотрудничеством в педагогическом коллективе.

Ключевые слова: организация дошкольного образования, методическое сотрудничество, механизм управления, учебный комплекс, интерактивные технологии, педагогический коллектив, профессиональная деятельность, руководители, семинары-тренинги, коммуникативные навыки, разрешение конфликтов, организационные навыки, "Шесть шляп мышления", "Мозговой штурм", "Метод BBB", "Кейс-технология", "Стратегическая таблица", "Дерево решений", "Пирамида целей", совместная деятельность.

KIRISH

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, pedagog kadrlarning professional malakasini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash mamlakatimiz ta'lim sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2021-yil 29-sentyabrdagi PF-6311-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-maydagi 268-son qarori maktabgacha ta'limmuassasalarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlar malakasini muntazam oshirish hamda ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

Zamonaviy ta'lim paradigmasi pedagoglarning individual rivojlanishidan tashqari, jamoa a'zolari o'rtasida samarali hamkorlik va metodik kollaboratsiyani tashkil etishni talab qiladi. Pedagogik faoliyatda kollaboratsiya nafaqat tajriba almashinuvi va professional osishni ta'minlaydi, balki ta'limjarayonining sifatini oshirish, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ko'plab maktabgacha ta'limtashkilotlarida metodik kollaboratsiyani samarali tashkil etish va boshqarish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu esa pedagogik jamoaning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jamoasida metodik kollaboratsiyani boshqarish ko'nikmalarini tahlil qilish natijalari ularning yetarli darajada emasligini ko'rsatdi. Shu sababli, direktorlar o'rtasida MTTda metodik kollaboratsiyani samarali tashkil etish va boshqaruvini rivojlantirishga yo'naltirilgan seminar-treninglar, mahorat darslari va boshqa qo'shimcha mashg'ulotlar majmuasini ishlab chiqish zarurati tug'ildi.

Mashg'ulotlarlar majmuasining maqsadi: Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining professional faoliyatidagi metodik kollaboratsiyani tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish.

Mashg'ulotlarlar majmuasining vazifalari:

1. Pedagoglarning hamkasblari bilan kollaboratsiya qilishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish bo'yicha tavsiyalar berish;
2. Tarbiyachilarning pedagoglar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratish bo'yicha tavsiyalar berish;
3. Pedagoglarning professional faoliyatda metodik kollaboratsiya ko'nikmalarini takomillashtirishga undash bo'yicha tavsiyalar berish;
4. Pedagoglarning kasbiy faoliyatdagi muammolarni hamjixatlikda hal qilishni ta'minlashga o'rgatish.

Mashg'ulotlarlar majmuasini amalga oshirish bosqichlari:

Birinchi bosqich: Direktorlarning metodik kollaboratsiyani boshqarish ko'nikmalarining mavjud darajasini aniqlash.

Ikkinchi bosqich: Direktorlarning metodik kollaboratsiyani boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha treninglarning o'tkazilishi.

Uchinchi bosqich: Metodik kollaboratsiyasini boshqarishning takomillashtirilgan mexanizmiga asoslangan holda pedagoglar va ota-onalar uchun ijodiy guruhlarda kollaboratsiyani loyihalashtirish va amalga oshirish rejalarini ishlab chiqish.

To'rtinchi bosqich: Yakuniy bosqich bo'lib, direktorlarda metodik kollaboratsiyani boshqarish ko'nikmalarining rivojlanganlik darajalarini aniqlash.

Direktorlarda metodik kollaboratsiyani boshqarish ko'nikmalarini takomillashtirish maqsadida interaktiv o'qitish texnologiyalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar tsikli ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Har bir mashg'ulotda maktabgacha ta'lim direktorlari tomonidan maktabgacha ta'lim yoki pedagogiklarning professional faoliyatiga oid muayyan masalalar va muammolar muhokama qilinadi.

Interaktiv texnologiyalar turli yondashuvlarni ko'rib chiqish, turli nuqtai nazarlar bilan tanishish, muammoni yagona qarash asosida tushunish va uni hal qilish yo'llarini topish imkonini beradi.

Har bir mashg'ulotning asosiy maqsadi – maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining metodik kollaboratsiyani boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Mashg'ulotlar shakli va metodlari:

1. Interaktiv treninglar;
2. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish;
3. Interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari;
4. Ishbilarmonlik o'yinlari;
5. Rolli o'yinlar;
6. Voqealarga asoslangan muhokamalar.

Interaktiv shakl va usullar ishtirokchilarning muhokama qilinayotgan muammolarni hal etishga bo'lgan motivatsiyasini va ishtirok etish darajasini oshiradi, kommunikativ ko'nikmalarni, tahlil va o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini, shuningdek, nizolarni hal qilish malakasini rivojlantiradi.

“Oltita fikrlash shlyapasi” texnologiyasi – oltita turli rangdagi shlyapalar muammoni tahlil qilish, yechim topish va asoslashning oltita turli yondashuvini ifodalaydi: faktlarni tavsiflash, muammoning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rish, vaziyatni hissiy idrok etish, ijodiy yondashuv, va yechimlarni baholash. Har bir muammo oltita guruh direktorlari tomonidan har xil shlyapa ostida muhokama qilinadi. Muammolarni hal qilishga bunday noodatij yondashuv direktorlarda qiziqish uyg'otadi. Ish jarayonida ayrim ishtirokchilarning qiyinchiliklari yaqqol namoyon bo'ladi.

“Fikrlar mozaykasi” – ishtirokchilar har xil fikr va g'oyalarni yozib, maxsus doskalarda yoki mozayka shaklida guruhlaydilar. Bu ishtirokchilarning fikr yuritishini tizimlashtirish va yangi g'oyalar yaratishga yordam beradi. U g'oyalarni vizual shaklda guruhlash va ularni o'zaro bog'lash imkonini beradi.

Qanday amalga oshiriladi:

1. Ishtirokchilardan o'z g'oyalarni turli rangli stikerlarda yozish so'raladi.
2. Bu stikerlar maxsus doska yoki katta qog'ozda joylashtiriladi va guruhlanadi.



3. Mozayka shakllantirilgandan so'ng, har bir guruh o'z g'oyalari izohlaydi va ularning o'zaro aloqasi haqida muhokama olib boradi.
4. Ishtirokchilar umumiy konsepsiyani shakllantirish uchun o'z fikrlarini qo'shishda davom etadilar.

Afzalliklari:

1. Vizual tashkil qilish fikrlarning ravshanligini oshiradi va muammoni yoki g'oyani keng qamrovli ko'rishga yordam beradi.
2. Bir qancha guruhlar bilan ishlaganda har bir guruh o'zining qarashlarini boshqalar bilan taqqoslab, natijada yangi va mukammal g'oyalar paydo bo'ladi.

“Aqliy hujum” (Brainstorming) metodining mohiyati shundaki, g'oyalarni ilgari surish jarayoni ularning tanqidiy baholashidan ajratiladi. Ishtirokchilarga muhokama qilinayotgan muammo bo'yicha har qanday g'oyalarni taklif qilishga ruxsat beriladi, biroq boshqa ishtirokchilarning fikrlarini tanqid qilish va baholash qat'iy tanqiziladi. Mashg'ulot ishtirokchisi biror fikr bildirishi bilan boshqalar darhol uni tanqid qilib, qarama-qarshi fikrlar bildirishadi. Masalan, pedagog maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lom turmush tarziga jalb qilish uchun bolalar bog'chalarida sovuq suv bilan chiniqtirishni joriy qilishni taklif qilsa, boshqa pedagog tomonidan fikr darhol qarshilikka uchradi, va hamma bu usulning imkonsizligini tushuntira boshlaydi. Faqat bir necha bor “Aqliy hujum” qoidalarini eslatib o'tish orqali mashg'ulotni muvaffaqiyatli davom ettirish mumkin bo'ladi. Keyingi seminar-treninglarda direktorlar boshqalarning fikrlariga nisbatan yanada sabrli bo'lishadi.

“BBB” metodi – bu ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan interaktiv yondashuvlardan biri bo'lib, u “Bilaman - Bilishni xohlayman - Bildim” (Bilmadim-Bilmoqchiman-Bildim) bosqichlariga asoslangan. Bu metod o'quvchilarning mavzu bo'yicha ilgari mavjud bilimlarini aniqlash, qiziqishlarini oshirish va natijada yangi bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Bilaman (Bilmadim) – ishtirokchilar o'zlarining mavzu bo'yicha oldindan mavjud bilimlarini yozadilar yoki muhokama qiladilar. Bu bosqich o'quvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlashga yordam beradi.

Bilishni xohlayman (Bilmoqchiman) – ishtirokchilar ushbu mavzu bo'yicha nimani bilishni istayotganlarini belgilaydilar. Bu jarayon motivatsiyani oshirishga va faol o'rganishga turtki beradi.

Bildim (Bildim) – Dars yakunida ishtirokchilar nimani o'rganganliklarini yozadilar yoki tahlil qiladilar. Bu bosqich orqali o'rganilgan bilimlarni baholash va mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Bu metod ko'pincha boshlang'ich va maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladi, lekin katta yoshdagi ishtirokchilarga ham mos keladi.

“Keys-texnologiya” – bu o'quv jarayonida ta'lim samaradorligini oshirish va direktorlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv o'qitish metodikasidir. Ushbu texnologiya asosida bilimlarni mustahkamlash va mustaqil o'rganishni rag'batlantirish uchun kalit so'zlar (keys) orqali ma'lumotlarni tuzilgan holda taqdim etish amalga oshiriladi.

“Keys-texnologiya”ni qo'llash sohalari:

1. Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limda bolalarning asosiy tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida;
2. Fanlar bo'yicha tezkor ta'lim materiallarini ishlab chiqishda;
3. Pedagoglarning malakasini oshirish kurslarida o'quv dasturlarini tuzishda.

“Strategik stol” metodi – bu ta'lim jarayonida direktorlarning analitik fikrlashini rivojlantirish, muammolarni strategik yondashuv bilan hal qilish va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan interaktiv o'qitish usuli. Ushbu metod guruhda ishlash va qaror qabul qilish jarayonlarini tashkil etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

“Strategik stol” metodining mohiyati shundaki, ushbu metodda direktorlar yoki ishtirokchilar bir necha guruhlariga bo'linadi va har bir guruhga muayyan mavzu yoki muammo taqdim etiladi. Guruh a'zolari “stol” atrofida birgalikda ishlashadi, muhokamalar olib boradi va aniq strategiyalar ishlab chiqishadi.

Metodning asosiy maqsadlari:

1. Muammolarni tahlil qilish va hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
2. Strategik fikrlashni rivojlantirish;
3. Guruh bilan ishlashda hamkorlik va liderlik sifatlarini shakllantirish;
4. Ijodiy va innovatsion yondashuvni rag'batlantirish;
5. Tezkor va aniq qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish.

“Qarorlar shajarasi” metodi – bu ta’lim va boshqaruv jarayonlarida muammolarni tahlil qilish va samarali qaror qabul qilish uchun qo’llaniladigan vizual va analitik usuldir. Ushbu metod qaror qabul qilish jarayonini bosqichma-bosqich tahlil qilish va muqobil variantlarni o’rganishga yordam beradi.

Metodning mohiyati shundan iboratki, bu metod muammoni strukturaviy tahlil qilish uchun daraxt shaklida vizual sxema yaratishni nazarda tutadi. Ushbu sxemada har bir qaror bo’lagi tarmoqlanib, turli tanlovlar va ularning oqibatlari ko’rib chiqiladi.

Asosiy maqsadlari:

1. Qaror qabul qilish jarayonida tizimli va aniq yondashuvni shakllantirish;
2. Muqobil variantlarni baholash va eng maqbul yechimni tanlash;
3. Xavflarni oldindan ko’rib chiqish va imkoniyatlarni aniqlash;
4. Mantiqiy fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirish;
5. Jamoaviy muhokamalar va konsensusga erishish jarayonlarini takomillashtirish.

“Maqsad piramidasi” metodi – bu ta’lim va menejment jarayonida maqsadlarni tizimli ravishda belgilash, ularni bosqichma-bosqich rejalashtirish va ularga erishish strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan vizual usuldir. Ushbu metod maqsadlarni ierarxik tartibda joylashtirish orqali ularning ahamiyati va bog’liqligini tushunishga yordam beradi.

Metodning mohiyati “Maqsad piramidasi” konsepsiyasi asosiy strategik maqsaddan boshlab, unga erishish uchun zarur bo’lgan kichikroq, oraliq maqsadlar orqali tuziladi. Piramida shaklida tuzilgan maqsadlar tizimi aniq yo’nalish berib, har bir bosqichni ketma-ket amalga oshirishni ta’minlaydi.

Asosiy maqsadlari:

1. Maqsadlarni tartibga solish va ustuvorliklarini aniqlash;
2. Uzoq muddatli va qisqa muddatli rejalashtirishni tizimli ravishda amalga oshirish;
3. Resurslarni samarali taqsimlash;
4. Erishish bosqichlarini monitoring qilish va tahlil qilish;
5. Harakatlar strategiyasini aniq belgilash va natijalarga erishish.

Maqsad piramidasi” tarkibiy qismlari:

1. **Piramidaning eng yuqori qismi** – Asosiy maqsad:
 - Uzoq muddatli strategik natijaga erishishni ko’zda tutadi.
 - Misol: “Ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish.”
2. **O’rta qatlam** – Oraliq maqsadlar:
 - Asosiy maqsadga erishish uchun zarur bo’lgan oraliq bosqichlar.
 - Misol: “Pedagoglarning malakasini oshirish”, “O’quv materiallarini raqamlashtirish.”
3. **Piramidaning pastki qismi** – Operativ vazifalar:
 - Kichik bosqichlar, amaliy harakatlar va resurslar taqsimoti.
 - Misol: “Treninglar tashkil etish”, “O’quv dasturlarini ishlab chiqish.”

“O’z kasbingni tasvirla” metodi – bu ta’lim jarayonida kasbiy yo’nalishni aniqlash, ishtirokchilarning kasbga oid tushunchalarini chuqurlashtirish va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan interaktiv pedagogik usuldir. Ushbu metod bolalar va o’smirlarning o’z qiziqishlarini aniqlash, kasblar haqida tasavvurini kengaytirish va o’zlarini tanlagan kasbda tasavvur qilishlariga yordam beradi. Bunda, ishtirokchilar yoki ishtirokchilar o’z kasbini vizual tarzda tasvirlash orqali o’z tasavvurlarini ifoda etadilar. Bu tasvir chizma, sxema, taqdimot, insho yoki og’zaki bayonot shaklida bo’lishi mumkin. Metod ishtirokchilarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi va kasbga oid tushunchalarni kengaytiradi.

“Sirli zanjir” metodi – bu ishtirokchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish va mavzuni yaxlit tushuntirish ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan interaktiv o’qitish usulidir. Ushbu metod asosiy g’oya yoki tushunchalar ketma-ketligini zanjir shaklida bog’lash orqali o’rganish jarayonini samarali tashkil qilishni maqsad qiladi.



Metodning mohiyati – “Sirli zanjir” metodi ishtirokchilarni mavzu bo‘yicha asosiy elementlarni aniqlash, ularni bir-biriga bog‘lash va mantiqiy zanjir tuzish jarayoniga jalb qiladi. Bu jarayonda har bir ishtirokchi yoki guruh o‘ziga xos bog‘liqliklar orqali bilimlarni tizimli ravishda tushuntiradi.

Umuman olganda, mashg‘ulotlar tsikli MTT direktorlarida metodik kollaboratsiya qilish, avvalo, muloqot ko‘nikmalarini va nizolarni hal qilish qobiliyatlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Pedagogik jamoada metodik kollaboratsiyani ta‘minlash bo‘yicha ishning 3-bosqichida pedagoglar va ota-onalar uchun tadbirlarni loyihalash va amalga oshirish bo‘yicha direktorlarning ijodiy guruhlarini tashkil etildi. Ushbu tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazish jarayonida direktorlar yagona maqsad, faoliyat, vaqt va o‘tkazilish joyi bo‘yicha birlashdilar, direktorlar o‘zaro vazifalarni taqsimladilar va yagona rejalashtirilgan natijaga erishdilar. Hamkorlikdagi faoliyat jarayonida direktorlarning kommunikativ, tashkiliy ko‘nikmalari, shuningdek, nizoli vaziyatlarda o‘zini tutish qobiliyatlarini rivojlantirildi.

Shunday qilib, maktabgacha ta‘lim tashkiloti pedagoglari o‘rtasida metodik kollaboratsiyani tashkil etish va boshqarishga qaratilgan mashg‘ulotlar majmuasi direktorlarning metodik kollaboratsiyani boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar tsiklida hamda ota-onalar bilan ishlash tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, interaktiv ta‘lim texnologiyalarini qo‘llagan holda o‘tkazilgan mashg‘ulotlar direktorlarning kommunikativ ko‘nikmalarini va nizoli vaziyatlarda o‘zini tutish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashg‘ulotlar davomida jamoa a‘zolarining tashkiliy ko‘nikmalari rivojlandi. Direktorlar umumiy maqsad, yagona vaqt va makon, vazifalarning taqsimlanishi, umumiy natijaga yo‘naltirilgan kollaboratsion faoliyatiga jalb etildilar. Mashg‘ulotlar jarayonida direktorlarning tashkiliy va kommunikativ ko‘nikmalari takomillashtirildi. Ular yagona maqsad, bir xil vaqt va makonda, aniq taqsimlangan vazifalar bilan yagona natijaga erishish yo‘lida hamkorlik faoliyatiga jalb qilindilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6311-son Farmoni, 2021-yil 29-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 268-son qarori, 2022-yil 22-may.
3. Азимов У.А., Шукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: ИКАР, 2009. – 448 с.
4. Бондаревская Е.В. Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания. – Ростов-на-Дону: РПУ, 1999. – 560 с.
5. Вдовина С.А. Проектирование профессионально-педагогической деятельности преподавателя высшей школы // Высшее образование сегодня. – 2010. – №1. – С. 71-73.
6. Дарлинг-Хаммонд Л., Барон Б. Мощное обучение: Что мы знаем о преподавании для понимания. – Сан-Франциско: Jossey-Bass, 2008.
7. Исламова З.И. Мактабгача таълим муассасаларида педагог кадрларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 48 б.
8. Каримова В.М. Метазнания как основа профессиональной компетентности педагога // Педагогика. – 2017. – №3. – С. 56-62.
9. Кларин М.В. Инновационные модели обучения: Исследование мирового опыта. – Москва: Луч, 2016. – 640 с.
10. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь. – Москва: Академия, 2005. – 176 с.
11. Панфилова А.П. Инновационные педагогические технологии: Активное обучение. – Москва: Академия, 2009. – 192 с.
12. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2008. – 272 с.
13. Слостёнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. – Москва: Академия, 2013. – 608 с.
14. Хамроева Ф.А. Мактабгача таълим муассасаси раҳбарининг бошқарув фаолиятини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2020.
15. Шишов С.Е., Кальней В.А. Мониторинг качества образования в школе. – Москва: Педагогическое общество России, 2000. – 320 с.
16. Ярошевский М.Г. История психологии от античности до середины XX века. – Москва: Академия, 1996. – 416 с.
17. De Bono E. Six Thinking Hats: An Essential Approach to Business Management. – New York: Little, Brown and Company, 1985.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.